

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PHD.03/04.06.2020.FIL.76.04 RAQAMLI RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

XAMIDOVA SAYYORA NURMATOVNA

MODAL TUZILISH UZVLARINING KOGNITIV TADQIQI

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Xamidova Sayyora Nurmatovna Modal tuzilish uzvlarining kognitiv tadqiqi.....	3
Khamidova Sayyora Nurmatovna Cognitive study of modal structure elements.....	24
Хамидова Сайёра Нурматовна Когнитивное исследование элементов модальной структуры	45
E'lon qilingan ishlar ro'yxati List of published works Список опубликованных работ.....	52

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PHD.03/04.06.2020.FIL.76.04 RAQAMLI RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

XAMIDOVA SAYYORA NURMATOVNA

MODAL TUZILISH UZVLARINING KOGNITIV TADQIQI

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

Falsafa doktori dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Fil.1699 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus) Ilmiy kengash veb sahifasi (www.fdu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Usmonova Xurinis Sharapovna,
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sultonova Shoxista Muxammadjanovna,
filologiya fanlari doktori, dotsent

Raximov Usmonjon Ergashevich,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Falsafa doktori dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Fil.1699 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "___" ___ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (998-69) 228-85-01, Faks: 228-85-02. Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz faks: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy. Tel.: (99869) 227-29-81).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "___" ___ kuni tarqatildi.

(2024-yil "___" ___ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

Z.Y.Sadiqov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

I.O'.Darvishov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

F.I.Karimova,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida tilni inson omili bilan uzviy tadqiq etish doirasida kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, pragmatika, sotsiolingvistika, etnolingvistika sohalaridagi ilmiy izlanishlar til bilan bog'liq hodisalar mohiyatini aniqlashga antropologik nuqtayi nazardan keng va ko'p qirrali lingvistik tahllarilni talab etmoqda. Tildagi modallik va uning mazmuniy qirralarini o'rganish bo'yicha jahon miqyosida amalga oshirilgan lingvistik amaliy tadqiqotlar orqali modal tuzilish va mazmun uzvlarining kognitiv o'rganishda to'g'ri yechim, ishonchli to'xtamlarga kelinib, asosli xulosalar chiqarilmoqda. Lingvistik birliklarning o'ziga xos mental dunyoqarash, milliy qadriyatlar bilan bog'liq konseptlarni lisoniy-kognitiv va pragmatik jihatdan amaliy o'rganish, uning mohiyatini antropotsentrik nuqtayi nazardan ochib berilish bugungi kunda ham muhim dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida amalga oshirilayotgan lingvistik tadqiqotlarda lisoniy hodisalarning asl mohiyatini modal birliklarning muhim jihatlari, so'zlovchi va tinglovchining ijtimoiy hayot tarzi, dunyoqarashi, berilayotgan axborot atrofida mavjud bo'lgan barcha tushunchalar, unga bildiriladigan munosabatning o'ziga xosliklari, mental dunyoqarash bilan bog'liqlik holatlarini o'zaro qiyoslash yo'li bilan ochib berilmoqda. Lisoniy kommunikatsiya jarayonida sodir bo'ladigan modallik va uni tashkil qiluvchi elementlarni aniqlash, ular orasidan dunyo xalqlariga xos etnomadaniy xususiyatlarni aks ettirganlarini keng ko'lamda o'rganish, bu borada natijador tadqiqotlarni amalga oshirish muhim dolzarblik kasb etuvchi zaruriy vazifalardan hisoblanadi.

Mamlakatimizning Uchinchi Uyg'onish davriga qadam qo'yishi, o'zbek tilining davlat tili sifatida yurtning ichki va tashqi hayotidagi nufuzi ortib borishi, funksional-stilistik imkoniyatlarining kengayishi shu vaqtga qadar e'tibordan chetda qolgan, milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz bilan bog'liq bo'lgan mavzularga ham qo'l urishni taqozo qilmoqda. "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak"¹. Bugungi davr o'zbek tilshunosligi oldiga sohani yangicha ilmiy-amaliy qarashlar orqali boyitish muammosini dolzarb masala sifatida qo'yimoqda. O'zbek tilidagi lisoniy jarayonlarning mazmuniy tomoniga e'tiborning kuchayishi tilning umumiylik-xususiylik, til-nutq dixotomiyasi asosida tadqiq etish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Bu esa o'zbek tilshunosligida til birliklarining modal tuzilishi, undagi uzvlarining kognitiv tadqiq yetilishi ham bajarilishi muhim vazifalar sarasida ekanligini ko'rsatib bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqidagi Qonuni qabul qilganining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida" gi PQ-4479-son Qarori.uz.uz

tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 984-son "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risida"gi; 2019-yil 8-oktabrda PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha oliy ta'limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi; 2020-yil 11-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 139-sonli "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiya rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi: Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Modallik kategoriyasiga doir tadqiqot ishlarini olib borish dunyo tilshunosligi bo'yicha tarixiy an'anaga aylangan. Jumladan, jahon va rus tilshunosligida S.N.Seytlin, J.L.Baybi, Sh.Balli, A.Vejbitskaya, M.Grepl, J.Koats, J.Lions, F.R.Palmer, V.Palyuka, P.Perkins, E.E.Suitser, A.Timberleyk, S.Chang, V.Z.Demyankov, V.V.Vinogradov, E.I.Belyaeva, V.N.Bondarenko, T.V.Bulygina, A.A.Zaliznyak, G.A.Zolotova, I.M.Kobozeva, N.I.Laufer, E.V.Paducheva, V.A.Plungyan, I.B.Shatunovskiy, A.D.Shmelev va boshqalar tomonidan mavzuga oid ko'plab tadqiqotlar maydonga keldi.

O'zbek tilshunosligida esa bugungi kunda A.Mamajonov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, M.Hakimov, M.Yo'ldoshev, N.Turniyozov, B.Yo'ldoshev, Sh.Iskandarova, Sh.Safarov, M.Abdupattoyev, I.Mirzayev, I.Hojaliyev, Z.Pardayev, B.O'rinboeva, Y.Mirzaahmedova³ hamda ko'plab olimlar modallik kategoriyasining turli qirralariga doir tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar. Biroq sotsiolingvistik, lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik, etno va mentalingvistik nuqtayi nazaridan modal tuzilish uzvlari hali to'liq va mukammal holda o'rganilmagan, o'z yakuniga yetmagan. O'ylaymizki, mazkur tadqiqotimiz mazkur mavzu ostidagi o'z yechimini kutayotgan masalalar yechimiga oz bo'lsada munsub ulushini qo'shadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Zamonaviy tilshunoslik muammolari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek tilshunosligida modal tuzilish doirasiga kiruvchi birliklarining lingvokognitiv jihatdan o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tilshunoslikda modal tuzilishni o'rganishga turlicha yondashuvlarni ko'rib chiqish va ularning namoyon bo'lish imkoniyatlarini lisoniy-kognitiv jihatdan lingvistik ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash va amaliy voqelanishini ko'rsatish;

mentalingvistik bosqichda kognitiv tadqiqotlarning ahamiyatini aniqlash va modal tuzilishi va kognitsiyaning umumiy hamda xususiy jihatlarini ochib berish;

modallik, modal tuzilish hamda modal tuzilish elementlarining o'zaro aloqasi, farqlari va matndagi ahamiyatini tahliliy yoritib berish;

modallikning kategoriya sifatidagi vazifalari asosida turlarga ajratgan holda tadqiq etish hamda mantiqiy, pragmatik, grammatik modallik kategoriyalari xususiyatlarini matndan olingan misollar orqali isbotlab berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek va dunyo tilshunosligida amalga oshirilgan mavzuga doir tadqiqotlar, modallikning grammatik, mantiqiy va pragmatik turlariga doir elementlari olingan.

Tadqiqotning predmetini o'zbek tilida modal ifodani anglatuvchi birliklar ishtirok etgan matnlar, lingvistik birliklar va ularning lisoniy-kognitiv xususiyatlarining yuzaga chiqaruvchi til qonuniyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida umumilliy tavsifiy metod elementlaridan (tanlash, tasnif, leksik materiallarni izohlash); qiyosiy-tarixiy metod (etimologik tahlil o'tkazish va tilning diaxron holatiga ko'ra qiyoslab o'rganish); leksikografik tahlil; konseptual tahlil metodi; leksik-semantik maydonni aniqlash usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

modal tuzilish bo'yicha mavjud yondashuvlarning nazariy asoslari umumlashtirilgan, uning o'zbek tilshunosligidagi daraja va holati, namoyon bo'lish imkoniyatlarini kognitiv tilshunoslik qonuniyatlari nuqtayi nazaridan alohida tizim ekanligi aniqlanib, o'ziga xos lingvokulturologik, pragmatik, sotsiolingvistik, etnolingvistik belgilari lisoniy-kognitiv jihatdan ochib berilgan;

o'zbek tilidagi modal tuzilish va kognitsiyaning umumiy jihatlaridagi xususiy jarayonlar o'ziga xos ijtimoiy, madaniy, milliy-mental va lingvomadaniy belgilarining kognitivlik uzvlari asosida lingvofunksional jihatdan dalillangan;

o'zbek tilida keng va umumiy jihatdan juda ko'p hamda faol qo'llanuvchi *albatta, ehtimol, balki, har holda, bizningcha, sizningcha, birinchidan, modomiki, tabiiy* kabi modal birlik elementlarining kommunikatsiya – aloqa-aralashuv va muloqot jarayonidagi mantiqiy, grammatik va pragmatik o'ziga xos lingvistik xususiyat-belgilari isbotlangan;

o'zbek tilidagi modallik kategoriyasini tashkil etuvchi birliklar uzvlarining umumlashtirish, turkumlashtirish va tizimlantirish asnosida *obyektiv, subyektiv, deontik, aletik, epistemik, aksiologik* kabi alohida turlari va ularning lingvokulturologik, pragmatik, sotsiolingvistik, etno va mentolingvistik xususiyatlari lingvistik-kognitiv o'ziga xosligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'zbek tilidagi modal tuzilishning uzvlari va ularning namoyon bo'lish imkoniyatlari lisoniy-kognitiv tomonlari milliy va amaliy lingvistik jihatdan ochib berilgan;

modal tuzilish uzvlari mentalingvistik bosqichda lingvokognitiv nutqiy- amaliy jihatlarining umumiy hamda xususiy ahamiyati ko'rsatib berilgan;

modallik, modal tuzilish hamda modal tuzilish elementlarining o'zaro aloqasi, farqlari va matndagi holat va ko'rinishlari tahliliy yoritib berilgan;

modallik kategoriya sifatida lingvofunksional vazifalarga, turlarga, ajratilib, ularning mantiqiy, pragmatik, grammatik modallik kategoriyalarga ega ekanligi matnlardagi o'ziga xos belgi-xususiyatlar asosida aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: izlanish jarayonida mavzuga daxldor lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik, lingvopragmatika, sotsiolingvistikaga oid ilmiy manbalardagi ilmiy-nazariy qarashlarga asoslanganligi, matnlarni tahlil qilish va ulardagi modal birliklarning o'rni, salmog'i, vazifaviy ahamiyatini aniqlashda xalqimizning milliy-ma'naviy qadriyatlari, dunyoqarashi va mentalitetidan kelib chiqilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek tilida modal tuzilish uzvlarini lisoniy-kognitiv yo'nalishda tadqiq etish tildagi mavjud modal birliklarni tarixiy-etimologik, semantik-stilistik va lingvopragmatik, lingvomadaniy xususiyatlarni aniqlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati to'plangan materiallardan kelgusida tilimizdagi modal birliklarni lingvomadaniy va lisoniy-kognitiv jihatdan o'rganishning tadqiq usullarini belgilashda, kognitiv tilshunoslik, lingvopragmatika, lingvomadaniyatshunoslik bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalari yaratishda ko'rinadi, to'plangan materiallar va tadqiqot natijalari mazkur fanlarni o'qitish va bu sohalarga oid nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tishda manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek tilidagi modal tuzilish uzvlarining kognitiv tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

modal tuzilish bo'yicha mavjud yondashuvlarning nazariy asoslari umumlashtirilgan, uning o'zbek tilshunosligidagi daraja va holati, namoyon bo'lish imkoniyatlarini kognitiv tilshunoslik qonuniyatlari nuqtayi nazaridan alohida tizim ekanligi aniqlanib, o'ziga xos lingvokulturologik, pragmatik, sotsiolingvistik, etnolingvistik belgilari lisoniy-kognitiv jihatdan ochib berilgan hamda o'zbek tilidagi modal tuzilish va kognitsiyaning umumiy jihatlaridagi xususiy jarayonlar o'ziga xos ijtimoiy, madaniy, milliy-mental va lingvomadaniy belgilarining kongnitivlik uzvlari asosida lingvofunksional jihatdan dalillangan o'rinlardan Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 2016-2018-yillarga mo'ljallangan 561624-yeRR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida dissertatsiya ilmiy natijalaridan foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 16-sentabrdagi 502/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, tilshunoslikda modal tuzilishni o'rganishga turlicha yondashuvlar, modal elementlarning kommunikatsiya jarayonidagi mantiqiy, grammatik va pragmatik xususiyatlari bo'yicha xulosalar chiqarish imkonini yaratildi;

o'zbek tilidagi modallik kategoriyasini tashkil etuvchi birliklar uzvlarining umumlashtirish, turkumlashtirish va tizimlantirish asnosida *obyektiv, subyektiv, deontik, aletik, epistemik, aksiologik* kabi alohida turlari va ularning lingvokulturologik, pragmatik, sotsiolingvistik, etno va mentolingvistik xususiyatlari lingvistik-kognitiv o'ziga xosligi aniqlangangi haqidagi xulosalaridan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining TEMPUS dasturi 2014-2016-yillarga mo'ljallangan Tempus Project 544161-TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL "Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes" nomli fundamental loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 16-sentabrdagi 495/02-son ma'lumotnomasi). Natijada kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, lingvopragmatika fanlarni o'qitish hamda sohaga oid manbalarning ilmiy-amaliy va nazariy jihatlari yangi ma'lumotlar bilan boyitildi;

o'zbek tilida keng va umumiy jihatdan juda ko'p hamda faol qo'llanuvchi *albatta, ehtimol, balki, har holda, bizningcha, sizningcha, birinchidan, modomiki, tabiiy* kabi modal birlik elementlarining kommunikatsiya – aloqa-aralashuv va muloqot jarayonidagi mantiqiy, grammatik va pragmatik o'ziga xos lingvistik xususiyat-belgilari isbotlangan fikr va xulosalardan 2021-2022-yillarda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining "Bedorlik", "Adabiy jarayon", "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" eshittirishlarining senariylarini yozishda foydalanildi hamda muallif bilan turkum suhbatlar uyushtirildi (O'zbekiston Milliy teleradio'kompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 09.01.2024 yildagi 02-36-900-sonli ma'lumotnomasi). Natijada modal tuzilishlar asosidagi muloqot jarayonlaridagi lisoniy-kognitiv jihatlarning obyektiv, subyektiv tomonlaridagi o'ziga xosliklar ko'rsatuv va eshittirishlardagi so'zlarning, fikrlarning ifoda qilinishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularning sifatini oshirishga hissa qo'shgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi: mazkur tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 3 ta xalqaro, 2 ta respublika konferensiyasida ma'ruza shaklida bayon etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi: Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan, 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, ishning umumiy sahifasi 142 tani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan

natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Modallik – kognitiv tilshunoslikning asosiy tadqiqot obyekti sifatida**" deb nomlanib, "**Tilshunoslikning mentalingvistik bosqichida kognitiv tadqiqotlar**" deb nomlangan 1-faslida kognitiv tilshunoslikning o'ziga xos xususiyatlari, bu sohada amalga oshirilgan tadqiqotlarning nazariy-tavsifiy ifodalari keltirilgan.

Tilshunoslik uzoq yillar davomida sistem-struktur aspektida tadqiq etilib kelindi. Sohaning kengayib, tadqiqot ko'lami oshib borgani sari tilni o'zidan tashqarida emas, balki uning ichida o'rganish ehtiyoji paydo bo'la boshladi. Bu esa tilni inson omiliga bog'liq holda o'rganish hamda tadqiq etish – antropotsentrik paradigmaning shakllanishiga zamin yaratdi. XX asrga kelib esa tilshunoslik sohasida katta o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Unga ko'ra mazkur soha amaliy ahamiyat kasb etgan holda borliqda mavjud so'zlar hamda ular anglatgan semantik mohiyatni inson bilan mushtarak tarzda mentalingvistik, psixolingvistik, sotsiolingvistik, kognitiv nuqtayi nazardan talqin eta boshladi. Buning natijasida til ilmida yangidan-yangi kognitologiya, psixolingvistika, sotsiolingvistika, pragmalingvistika lingvokulturologiya, neyrolingvistika kabi yo'nalishlar shakllanib bormoqda. Ushbu yo'nalishlar bir vaqtning o'zida bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, so'zning kishi hayotida anglatgan mohiyatini amaliy jihatdan tadqiq etish, tafakkur qilish hamda insoniyat hayotiga singdirish bilan bog'liq ekanligi yuzasidan xarakter kasb etadi.

Kognitiv tilshunoslik – bu til va ong o'rtasidagi munosabatlar hamda muammolarini idrok etuvchi, olamni turkumlashtirish hamda ma'lum konseptual birliklar asosida tasvirlashda tilning tutgan roli, insonning kognitiv jarayonlarni idrok etish qobiliyatini shakllantiruvchi tilshunoslik sohasining ma'lum yo'nalishlaridan biridir. U dastlab o'tgan asrning 70-yillarida Amerikada paydo bo'lgan.

A.Mamatov: "Kognitiv fan kognitsiya (bilish) bilan shug'ullansa, kognitiv tilshunoslik kognitsiyaning, ya'ni bilishning tilda aks etishini, verballashuvini tadqiq qiladi. Tilga bo'lgan kognitiv yondashuv – bu til shaklining oxir-oqibat inson ongi, fikri, bilish strukturalarining aks ettirilishidir. Kognitivlik o'z tuzilishiga ko'ra insonning bilish faoliyatiga tayangan barcha tipdagi bilimlarning tizimlashishini ifodalaydi"².

G'.M.Hoshimov: "Kognitiv tilshunoslik – inson tomonidan borliq dunyo voqeligini til orqali anglanishi, o'rganilishi, ya'ni konseptlar vositasida uning in'ikos

² Mamatov A. E. Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? // Tilshunoslikning dolzarb masalalari: Prof. A.Nurmonov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan ilmiy -amaliy anjuman materiallari. – Andijon, 2012. – B. 212-219.

etilishi, his va idrok qilinishi kabi inson miyasida kechuvchi murakkab konseptual jarayonlar bilan bog'liq muhim yo'nalishdir"- deb ta'kidlaydi³.

Sh.Safarov: "Kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo'llash hamda uzatish, umuman, til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in'ikosi sifatida tafakkur bilan bog'lab, chuqur ilmiy tadqiq etishdir"⁴.

M.Hakimovning o'zbek tilidagi matnning pragmatik talqiniga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasi va monografiyasida matn lingvistik pragmatika, nutqiy akt nazariyasi tamoyillari asosida o'rganilgan, matnda ochiq va yashirin (eksplitsit va implitsit) shaklda ifodalanadigan mazmunlarning o'ziga xos qonuniyatlari ko'rsatib berilgan, ularning semantik, sintaktik, presuppozitsion va pragmatik xususiyatlariga doir qoidalarga aniqliklar kiritilgan. Bu ishlar o'zbek tilidagi matn tilshunosligi muammolariga nazariy jihatdan tamoman bayon etilganligi bilan xarakterlanadi⁵.

Umuman olganda, kognitivizm – bu fikrlash jarayonlarini boshqaradigan umumiy tamoyillarni o'rganish uchun birlashtirilgan fanlar majmuidir. Shunday qilib, til fikrlash jarayonlariga kirish vositasi sifatida taqdim etiladi. Insoniyat tajribasi, tafakkuri aynan tilda muqimdir, til – bu kognitiv mexanizm, ma'lumotni maxsus kodlash va o'zgartiruvchi belgilar tizimidir⁶.

Kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri konsept sanaladi. Ishda mazkur tushuncha turli olimlar tomonidan ta'riflangan hamda unga doir ilmiy-nazariy qarashlar keltirilgan. Konseptlarda mentallik aks etib turadi. Har qanday konseptual tahlilga nazar tashlansa, u qaysi millatga xos tadqiqot bo'lsa, unda o'sha millatning mentallik nafasi sezilib turadi. So'nggi yillarda lisoniy-kognitiv tahlil hamda konseptual tahlil masalalariga e'tibor va talab yuqori.

Bobning "**Modallik tushunchasining o'ziga xos kognitiv xususiyatlari**" deb nomlangan ikkinchi bandida modallik kategoriyasining xususiyatlari va o'rganilishiga doir ma'lumotlar berilgan. Modallik tilshunoslikning kognitologiya, pragmatika, sotsiolingvistika, mentalingvistika, lingvokulturologiya kabi ko'plab sohalariga doir tushunchadir. U grammatik birlik sifatida gapning hamda semantikaning asosiy komponenti hisoblanadi. Inson nutq so'zlovchi obyekt sifatida butun borliqni o'z miyasida aks ettiradi, ongida olamning lisoniy manzarasini yaratadi, voqelikka nisbatan o'z subyektiv munosabatini ifodalaydi. Ana shu munosabat modallik sanaladi. Inson o'z xulosalarini so'zlardan tarkib topgan gaplar orqali ifodalaydi. Gaplardan tashkil topgan har qanday matnda modallik mavjud bo'ladi. Gapning xilma-xil turlari bo'lishiga qaramay, ularning har birida modallik bor, sababi har qanday gap o'ziga xos bo'lgan mazmuni ifodalaydi va unda so'zlovchining borliqdagi voqelikka nisbatan munosabatini ifodalab turadi. "Biror maqsadga yo'naltirilgan har qanday gap mazmuni, hissiyot, undash u yoki bu gap

³ Xoshimov G. M. К теории концептов и их таксономии в когнитивной лингвистике // Систем-структур tilshunoslik muammolari. Filologiya fanlari doktori, professor N.K.Turniyozov tavalludining 70-yilligiga bag'ishlangan Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. –Samarqand, 2010. ³ Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik,- Jizzax: Sangzor, 2006.-91 b.

⁴ Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik,- Jizzax: Sangzor, 2006.-91 b.

⁵ Hakimov M.X. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini. Filol. fanlari doktori... diss. avtoref. – Toshkent, 2001. – 50 b.; Hakimov M. O'zbek pragmatolingvistikasi asoslari. Monografiya. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 176 b.

⁶ Скребцова, Т. Г.Когнитивная лингвистика: Курс лекций.— Филологический факультет СПбГУ, 2011.— С.256.— ISBN 978-5-8465-1037-1.

shaklida voqelikni aks ettiradi va bu til tizimida mavjud bo'lgan gapning intonatsion tuzilishiga o'ralib, fe'l mayllari yordamida sintaktik ma'nolarning birini ifodalab, modallik kategoriyasini tashkil qiladi"⁷.

Modallik kategoriyasi bo'yicha tilshunoslikda qilingan ishlar soni hamda salmog'i yuqori bo'lsa-da, uning yakdil ta'rifi, unga doir yagona nazariy qarash shakllantirilmagan. Olimlar uni umumiy fikrlarga tayangan holda, o'z nuqtayi nazarlaridan kelib chiqib ta'riflashgan. Mazkur tushunchaning mohiyatini aniq ochish uchun turli lug'atlarga murojaat qilishni lozim topdik. O'zbek tilining izohli lug'atida modallik tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: *fr. modalite (lot. modus — usul; mayl) tlsh. Fikrning, gap mazmunining voqelikka bo'lgan munosabatini ko'rsatuvchi grammatik kategoriya*⁸.

A.Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" da esa modallikka ham tushuncha, ham kategoriya sifatida izoh beriladi⁹.

Xuddi shu asnoda S.Negmatovanning "Модальность и способы ее выражения в языках различного строя" nomli nomzodlik ishida ham bir qancha lug'atlarda keltirilgan manbalarga tayanilgan: "Lingvistik atamalar lug'ati"da modallik ma'ruzachining bayon mazmuniga munosabati va bayon mazmunining voqelikka munosabati ma'nosiga ega bo'lgan konseptual kategoriya sifatida talqin qilinadi, bu kayfiyat shakllari, modal fe'llar, intonatsiya va boshqalar kabi grammatik va leksik vositalar bilan ifodalanadi. "Lingvistik ensiklopedik lug'at"da modallikni voqelikka bo'lgan munosabatining har xil turlarini, shuningdek xabar berayotgan shaxs subyektiv malakasining xilma-xil turlarini ifodalovchi funksional-semantik kategoriya sifatida belgilaydi. Unda ta'kidlanishicha, modallik atamasi semantik hajmi, grammatik xususiyatlari va til tuzilishining turli darajalarida shakllanishi jihatidan bir xil bo'lmagan keng ko'lamli hodisalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Shunday qilib, modallik tushunchasi "Rus grammatikasi"da semantik hajmi, grammatik xususiyatlari va til tizimining u yoki bu darajasiga mansubligi jihatidan bir xil bo'lmagan lingvistik hodisalarni belgilash uchun ishlatiladi. Ushbu hodisalarning umumiy jihati shundaki, ularning barchasi ma'lum ma'noda – grammatik, leksik, intonatsion – ma'ruzachining xabar qilingan voqelikka munosabatini ifodalaydi¹⁰.

Quyida modallikka doir ishlarni kuzatish natijasida olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni keltirib o'tamiz:

Sh.Balli: Modallik – bu jumlaning ruhi; fikr kabi, u asosan gapiruvchi subyektning faol operatsiyasi natijasida hosil bo'ladi. Sh.Balli nazariyasi asosida ikkita ma'no birlashtiriladi: 1) diktum (jumlaning ob'ektiv mazmuni); 2) modus

⁷Aliyeva M. O'zbek tilida modal ma'no ifodalovchi lingvistik vositalar. Magistr darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Andijon, 2011. – B.11.

⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-tom. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi " Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 605.

⁹ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – B. 159.

¹⁰ Негматова С. Модальность и способы ее выражения в языках различного строя. Дис.кандидат наук. – Таджикистан, 2022. – С. 147

(fikrlovchi sub'ektning ushbu tarkibga nisbatan pozitsiyasini ifodalash). Moduslar aniq va yashirin shakllarga bo'linadi¹¹.

V.V.Vinogradov: Modallikning turli leksik-grammatik xususiyatlari mavjud. Ba'zan bir matnda modallik kategoriyasini topish, hatto zamonaviy tilshunoslik vakillari uchun ham qiyin ishdir. Amaliy-ijtimoiy xabar almashishda haqiqatni aks ettiruvchi jumla, tabiiyki, nutq mazmunining voqelikka bog'liqligini (munosabatini) ifodalaganligi sabab, modallik kategoriyasi taklif, uning turlari xilma-xilligi bilan chambarchas bog'liq.¹²

Kireyeva Y. Modallik matnda yuzaga keladi va til modalligi yuqori darajada turadi. So'zlovchining uslubiy va kommunikativ doirada matnning mazmuniga nisbatan munosabatini ifodalashi modallikni obyektiv tadqiq etishga undaydi. Modallik turli sohalarga xos kategoriya bo'lishi mumkin, chunki u tabiiy ravishda kengayish xususiyatiga ega. Shuning uchun u turli – stilistik, kommunikativ va shu kabi mezonlar asosida hosil bo'ladi. Modallikning vazifasini kommunikativ-funksional mezon hamda funksional-semantik mezon bilan o'zaro taqqoslanganida, funksional-semantik mezon birlamchi hisoblanadi¹³.

Modallik ko'p qirrali hodisa bo'lib, shuning uchun lingvistik tadqiqotlarda ushbu kategoriyaning til mohiyatini talqin qilishi borasida ko'plab mulohazalar va yondashuvlar mavjud. Aksariyat lingvistik yo'nalishlar bitta maqsadni o'z oldiga qo'yadi – bu inson nutqi bilan bog'liq bo'lgan aqliy va psixologik jarayonlarni aniqlash. Ushbu aqliy jarayonlar modallik bilan uzviy bog'liqdir. Modallikning kategorik mohiyati uzoq vaqtdan beri tilshunos olimlar va faylasuflarning munozaralari obyekt bo'lib kelgan. Modallik kategoriyasi obyektning ta'rifi sifatida predikat bo'lib xizmat qiladigan tushunchalarni umuman kengaytirmasliklari, balki faqat kognitiv qobiliyatga bo'lgan munosabatni ifoda etishlarining o'ziga xos xususiyatiga ega. Modallik haqidagi asosiy qoidalar imkoniyat, voqelik va tushunchalarni tushuntirishdan boshqa narsani o'z ichiga olmaydi¹⁴.

Modallikni aspekt sifatida tadqiq etish A.Nurmonovga borib taqaladi. O'zbek tilshunosligida bajarilgan ko'plab ishlarda olimning nazariyalari asos bo'lganligiga guvoh bo'ldik. Olim modallikni turli sathlilik kategoriyasiga asoslanib talqin qiladi. Ya'ni turli sathga doir birliklar bir tushuncha – modallik tushunchasi ostiga birlashadi. Demak, modallik kategoriyasi til kategoriyasi sifatida obyektiv mavjuddir.

S.Boymirzayevaning ta'kidlashicha, matn modallik maydoni voqelikka va ma'lum qilinayotgan axborotga bo'lgan subyektiv munosabatlarning ko'p qatlamli

¹¹ Балли, Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка [Текст] / Пер. с 3-го фр. изд. Е. В. и Т. В. Вентцель; Ред., вступ. статья [с. 3-19] и примеч. Р. А. Будагова. - М.: Изд-во иностр. лит., 1955. – С. 416.

¹² Виноградов, В.В. О категории модальности и модальных словах в русском языке // Исследования по русской грамматике: Избранные труды / под ред. Н.Ю. Шведова. - М.: Наука, 1975. – С. 560.

¹³ Киреева Е. Категория модальности и ее выражение в тексте официального документа (на материале регионального законодательства. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук – Архангельск – 2019. – С. 42.

¹⁴ Негматова С. Модальность и способы ее выражения в языках различного строя. Дис. кандидат наук. – Таджикистан, 2022. –С. 147. Диссертация на тему «Модальность и способы ее выражения в языках различного строя», скачать бесплатно автореферат по специальности ВАК РФ 10.02.19 - Теория языка (dissercat.com)

tuzilishidan tarkib topadi. Bu qatlamlar, o'z navbatida, semantik kategoriyalarni hosil qilib, muloqot muhitida turli kommunikativ maqsadlarni ko'zlaydigan pragmatik mo'ljallarni rejalashtirish uchun asos bo'ladi.¹⁵

Ko'rib chiqilgan tasniflardan umumlashtirib, modalik vositalarini quyidagi guruhlarga ajratgan holda tasniflash mumkin bo'ladi:

1-jadval.

Morfologik vositalar	Mayl, zamon, shaxs-son qo'shimchalari
Leksik vositalar	So'zlarning turli guruhlari
Sintaktik vositalar	Alohida gap qurilmalari, so'z tartibi, takror
Fonetik vositalar	Intonatsiya

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Modal birliklarni kognitiv tahlili qilishning o'ziga xos metodologik asoslari”** deb nomlanib, unda modal tuzilish birliklari, kognitsiya, modallik turlari hamda ularning kognitiv tahlili yuzasidan mulohazalar keltirilgan. Bobning **“Modal tuzilish va kognitsiya”** nomli 1-bandi mazkur tushunchalar mohiyatini ochishga qaratilgan. Modal tuzilishning ahamiyati matnning yaxlitligini tushunishda aks etadi. Jahon tilshunosligida modallikka doir juda ko'p ta'riflar, ilmiy-nazariy qarashlar bildirilgan. Jumladan, V.G.Admoni, O.S.Axmanova, V.V.Vinogradov, P.Y.Galperin, E.V.Gulyga, V.V.Drujinina kabi olimlarning fikrlarini olish mumkin. Modallik – deydi Galperin: yozuvchining o'zi yaratgan dunyoga subyektiv munosabati to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ifodalanganligini ko'rsatadi. O.S.Axmanova ham bu haqda shunday deydi: Modal fe'llar va boshqa elementlar yordamida ifodalangan konseptual kategoriya munosabatni o'z ichiga oladi.

Kognitsiya jarayoni kishi ongida namoyon bo'ladi, bu – bilish jarayonidir. Kognitsiyaga V.Z.Demyankov ta'rifi bilan qaraydigan bo'lsak, Kognitsiya bilish atamasi bilan bir xil ma'noni anglatmaydi, u bilish atamasining bir variantidir. U idrokka xizmat qiladigan va undan kelib chiqadigan aqliy operatsiya sanaladi. U olingan bilimlarni so'zlar orqali tilda namoyon etish vazifasini bajaradi¹⁶.


Ko'plab adabiyotlarda kognitsiyani **“bilish”** termini bilan atashadi. Jumladan, M.Hakimov mazkur tushuncha haqida to'xtalib, quyidagi fikrlarni bayon etadi: Bilish jarayoni inson tafakkurida yuz berayotgan obyektiv olam va uning elementlari o'zlashtirilishi hamda butun tarkibidagi elementlarning sistema sifatida qabul qilinishidir. Biz esa sistema tarkibiga kiruvchi bo'laklarning umumiy belgisiga ko'ra birlashuvchi va xususiy belgilarga ko'ra farqlanuvchi jihatlarni tafakkur ko'magida farqlaymiz. Inson tafakkurida ilmiy bilishning turli bosqichga ega idrok qilish va mulohaza asosida qayta shakllantirishga asoslangan ko'rinishlari lingvistik muloqot uchun zarurdir. Shuning uchun inson tafakkuriga xos va idrok asosida jamlangan dunyoqarash, ma'naviy tasavvur, tarbiya, xarakter kabi shaxsga xos barcha belgilar uning nutqida o'z ifodasi va bor bo'yi bilan ko'zga tashlanadi¹⁷.

¹⁵ Boymirzaeva S. Matn modalligi.- Toshkent: Fan, 2010.- B. 15,150.

¹⁶ В. З. Демьянков.Когниция и понимание текст.// Когнитивные аспекты текста и дискурса. № 3 (006) 2005 г.- С. 5-10.

¹⁷ Hakimov Muxammad Uzbek pragmalingsistikasi asospri / M.Xakimov; mas'ul muxarrir A.Nurmonov. - Toshkent: Akademnashr, 2013. - 176 b. – B. 70


Kognitsiya quyidagi jarayonlar asosida hosil bo'ladigan jarayon sanaladi.



Obyektiv modallik – Soʻzlovchi tomonidan berilayotgan xabarning voqelikka munosabatini ifodalaydi. Bu xususiyat har qanday axborotga xos xususiyat boʻlib, predikativ birlik – jumlaning shakllantiradi. Obyektiv modallikda gapning realligi yoki norealligi muhim hisoblanadi. Bildirilayotgan fikr haqiqat boʻlishi ham yoki haqiqatga yaqin boʻlmasligi ham mumkin. Masalan, doʻstim uyga keldi, gapi haqiqat (real), doʻstim uyga keladi deyilganda esa haqiqiy boʻlmagan haqiqat tushuniladi (noreal) “Obyektiv modallikning yadrosi feʼlning morfologik modalligi (uning moyilligi) obyektiv modallikni shakllantirishning asosiy vositasi sanaladi¹⁸.”

Obyektiv modallikning xususiyatlaridan kelib chiqib, uning ikki turi mavjud ekanligini aytish mumkin:

¹⁸ [Объективная модальность. \(studfile.net\)](http://studfile.net)



Modallik kategoriyasining ikkinchi turi – bu **subyektiv modallikdir**. U soʻzlovchining berayotgan axboroti mazmuniga ishonchliligi, ishonchsizligi nuqtayi nazaridan munosabat bildirishi jarayonida hosil boʻladigan modallikning alohida turi sanaladi. Subyektiv modallik atamasini 1970-yilda N.Y.Shvedova qoʻllagan. U predikatsiya obyektini (yaʼni obyektiv voqelikda mavjud boʻlgan narsa) va uning obyektiv haqiqat haqiqati boʻlmagan belgisi oʻrtasidagi bogʻliqlikni ifodalaydi. Yaʼni, soʻzlovchining oʻzi bu belgini (bahoni) bashorat qiladi xolos, u oʻzining obyektiv mavjudligini tasdiqlay olmaydi, faqat oʻzi bu belgining mavjudligini taxmin qiladi. Shuning uchun modallikning bu turi subyektiv deb ataladi¹⁹.

Baʼzi manbalarda subyektiv modallikning ikki turi ajratib koʻrsatiladi, bular: epistemik hamda aksiologik modallik. **Epistemik modallik** sodir boʻlgan holatning oʻsha vaqtga nisbatan qatʼiyligini anglatadi. Koʻp holatlarda ushbu modallikni mantiqqa xos deb atashsa-da, u lingvistik hodisa ekanligi uning qoidalaridan sezilib turadi. “U bilmoq, ishonmoq, iymon keltirmoq kabi harakat feʼllarining modal feʼllar orqali ifodalangan variantlari hisoblanadi”.²⁰ Epistemik modallik shakllari kontekstda modal feʼllar koʻrinishida keladi. Uning ikki turi mavjud: kuchli va kuchsiz epistemik modallik.

Bobning “**Modal tuzilish elementlarining kognitiv tahlili**” nomli 3-bandida quyidagi mulohazalar keltirilgan: Tilshunos S.Saidovning aniqlashicha, oʻzbek tilida 115 ta modal soʻz va 24 ta modal ibora mavjud ekanligi aytib oʻtilgan edi. Balki modal soʻzlarni aniq bir raqamlar bilan miqdorini belgilash toʻgʻri boʻlmas, sababi oʻzbek tili soʻzga boy ekanligi, unga doir matnni kognitiv tahlil qiladigan boʻlsak, adabiyotlarda keltirilmagan, yangidan-yangi modal birlik elementlari mavjud ekanligiga guvoh boʻlish mumkin.

Bugungi kunda oʻrganilayotgan darsliklarda modal soʻzlar sifatida bir qancha soʻzlar maxsus maʼnoviy guruhlarga ajratilgan tartibda berilgan. Unga koʻra birinchi turga xos modal soʻzlar yordamida fikrning rostligi, realligi (*haqiqatdan, darhaqiqat*), fikrning qatʼiyligi (*shubhasiz, soʻzsiz*), anglatilayotgan voqelikning yuz berishiga ishonch bildirish (*albatta*), anglatilayotgan voqelikning yuzaga kelishi tabiiy ekanligi (*oʻz-ozidan, tabiiyki*), fikrning chinligi, realligi (*darvoqe, rostdan ham, aslida*) kabi maʼnolar anglatilsa, ikkinchi turda fikrning taxminiy ekanligi (*shekilli, chogʻi, chamasi*), fikrning gumonli ekanligi (*ehtimol, balki*), fikrning

¹⁹ Шведова Н.Ю.(ред.) - Русская грамматика. Т.II. Синтаксис. – 1980. – С. 216.

²⁰ Хамраева М. Evidensiallik va epistemik modallikning kognitiv voqelanishi (“Taste”-“Taʼm bilmoq” sezgi feʼllari misolida)// Xorijiy filologiya №3, 2021 yil. – B. 100-104.

tusmolli ekanligi (*hoyna-hoy, aftidan*), fikrning chinligiga gumon, ishonch (*har holda, har qalay*) kabi ma'nolar sezilib turadi.

Quyidagi jumлага e'tibor qaratamiz: ***Ehtimol***, sizda ham shunday hollar bo'lgandir: *tun yarmidan oqqanda birdan uyg'onib ketasiz. Shiftga tikilib yotaverasiz, yotaverasiz... Avvaliga chiqillab turgan soat ham bora-bora tinib qolgandek bo'ladi. Uy jimjit, deraza jimjit, qorong'i osmon jimjit. Hatto shamol ham qilt etmaydi. Shu qadar og'ir sukunat cho'kadiki, quloqlaringiz shang'illab ketadi. (O'.Hoshimov. "Dunyoning ishlari", 1-bet.).*

Mazkur keltirilgan jumlada modal elementlardan unumli foydalanilgan (modal so'z, zamon, mayl, shaxs-son, intonatsiya, semantik maydon va boshqalar). Semantik jihatdan talqin qilinsa, bu yerda so'zlovchining tushkun holati, o'tayotgan umrining rangsiz, zerikarli hamda azobli ekanligi, unga nimadir yetishmayotganligi, vaqtning sekin o'tishi tasvirlangan. Ehtimol modal elementi orqali nutq egasi tinglovchiga murojaat qiladi, o'zida kechayotgan holatlarning boshqalarda ham sodir bo'lishi mumkinligiga ishora qilib, bu qanday holat ekanligini keying jumlarlar orqali izohlab beradi. Ushbu parcha olingan kitobning kim va nima maqsadda yozilganligini bilgan kitobxon, o'z-o'zidan gap nima haqida ketayotganligini anglab oladi, sababi u bu kitob butun dunyo onalariga bag'ishlanganligi, undan o'rin olgan barcha hikoyalar onalar bilan bog'liq voqealarni tasvirlaganligi haqida aytilgan axborotlardan o'ziga tegishli xulosa chiqargan va o'z kognitsiyasiga ega bo'lgan. Mazkur axborotni qabul qiladigan adresat onasiz hayotning nursiz, shavqsiz ekanligi, o'tayotgan har lahza maznsizligi, onasiz sukunatda, yolg'izlanib qolgandek bo'lish, uyqusiz tunlar – hammasi borliqda mavjud bo'lgan insoniyatga xos ekanligi yuzaga chiqadi. Bizningcha, hech bir zot mana shu tasvirlarni menga bog'liq emas deya olmaydi. *"Avvaliga chiqillab turgan soat ham bora-bora tinib qolgandek bo'ladi. Uy jimjit, deraza jimjit, qorong'i osmon jimjit. Hatto shamol ham qilt etmaydi. Shu qadar og'ir sukunat cho'kadiki, quloqlaringiz shang'illab ketadi"*. Odatda, soatning to'xtashi ikki xil holatda sodir bo'ladi, birinchisi, soat ishdan chiqqanda, ikkinchisi quvvati tugaganda. Biroq bu jumlada soatning to'xtashi, obyektga emas, balki subyektivlik bilan bog'liq, unda vaqtning o'tmasligi, to'xtab qolganligi kabi semantik mazmun mavjud. Tun leksemasining o'ziyoq sokinlik, sukunat, jim-jitlik kabi ma'nolarni anglatishi ayon bo'lsa-da, muallif unga o'z emotsiyasini, aksiologiyasini, shaxsiy munosabatini qo'shib tasvirlaydi. *"Quloqlaringiz shang'illab ketadi"* jumlasini olsak, bilamizki, quloqlar juda kuchli shovqindan shang'illab ketadi, bu yerda esa juda kuchli sokinlik, jim-jitlik sabab quloqlar shang'illashi tasvirlangan. Insonda beixtiyor sukunatdan ham quloqlar qomatga kelishi mumkinmi, degan savol tug'ilishi mumkin, bu kishining borliqqa munosabati bilan bog'liq jarayon bo'lib, tasvirlanayotgan voqelikning naqadar azobli ekanligiga ham ishora qiladi.

Ishning uchunchi bobi **"Kategoriya sifatida shakllangan modallik turlarining o'ziga xos xususiyatlari"** deb nomlanadi. Bobning **"Mantiqiy modallik kategoriya sifatida"** qismida modallikning mantiq bian bog'liq funksiyalari haqida so'z boradi. Mantiqiy modallik inson tafakkurida mavjud holat to'g'risidagi hukmning aniq yoki noaniqligi, tasvirlanayotgan predmet va

uning belgisi orasidagi o'zaro sebyektiv va predikativ aloqaning turlari, xususiyatlari haqidagi kategoriya hisoblanadi.

Modallik tushunchasi kategoriya sifatida tilshunoslik hamda mantiqshunoslikka doir ishlarning asosiy ob'yektidir. Ko'plab olimlar modallik lingvistik kategoriya va bu xislat ushbu tushunchaning birlamchi xususiyati deb hisoblasalar, boshqa olimlar uni sof mantiqiy kategoriya sifatida baholaydilar. Bu esa grammatik modallik va mantiqiy modallikning uzviy ekanligiga ishora qiladi. Aytib o'tganimizdek, mantiqiy hukmda aks etgan modallik obyekt va uning belgisi, predmetlar orasidagi munosabatning real yoki norealligi masalasi birlamchi bo'lib, uni tasdiqlash yoki rad etish hukm orqali yuzaga chiqadi. Ushbu hukmning bayonot shaklida voqelanishida til hodisasining ahamiyati, modallikning lingvistika bilan bog'liq tomoni sanaladi. Inson ongida borliqda sodir bo'lgan voqealarni, holat hamda vaziyatlarni aks ettirar ekan, uning obyektiv olam haqidagi tasavvurlari kengayib boraveradi, o'zi xabarlarini qabul qiladi yoki rad etadi.

Modallikni kategoriya sifatida shakllantiradigan vosita – bu hukm. Tashqi olamdan qabul qilingan axborot miyada tasdiqlanadi yoki inkor tiladi. Masalan, “2023-yil – Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili” yoki “2023-yil – Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili emas”. Mana shu hukm orqali inson voqelikka o'z munosabatini bildiradi. Mantiqiy modallikni huquq-tartibot faoliyati bilan uzviylikda tadqiq etgan olim A.Mavlyanov modallikning mantiqqa xos kategorial xarakteriga to'xtalib shunday deydi: Hukmning xarakterini asoslaydigan yoki predmet va uning belgilarini aks ettiruvchi subyekt bilan predikatning o'zaro bog'liqligi ifodalangan qo'shimcha ma'lumotga hukm modalligi deyiladi²¹.

Mantiqiy modallikda hukmning uchta turi ko'rsatiladi:


1. Ehtimollik hukmi predikat va subyekt belgisini taxminan tasdiq yoki inkor etadi: *Ehtimol, ertaga havo ilib qolar. Balki, uning uyida chiroq o'chgandir.*

2. Mavjudlik hukmi predikat va subyekt belgisining mavjudligini tasdiqlaydi yoki inkor etadi: *Onaning betobligi uning horg'in va majolsiz yuzlaridan sezilib turibdi.*

3. Zaruriy hukm predikat va subyektga xos belgini albatta tasdiq yoki inkor etadi: *Tundan keyin tong otishi zaruriy hodisa.*

Qolaversa, adabiyotlarda hukmlarning modallikka xos bo'lgan alohida turlari ham ko'rsatiladi, ular quyidagilar:

²¹ Mavlyanov A. A. Mantiq: Ma'ruzalar kursi. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. – B. 135.



Bobning **“Pragmatik modallik kategoriya sifatida”** deb nomlangan 2-bandi modallikning pragmatika bilan bog’liq tomonlari ochib berilgan. Keying yillarda “pragmatika” va “modallik” tushunchalari ko’plab tadqiqotlarda bir nuqtada kesishmoqda. Ikkala tushuncha ham o’z doirasida keng miqyosga ega, biroq pragmatika modallikka qaraganda kengroq soha hisoblanadi. Pragmatikani lingvistikaning har bir vositasida uchratish mumkin bo’ladi. Modallik esa barcha bo’limlarda namoyon bo’la olmaydi. Ayrim olimlar modallikni faqat sintaktik hodisa deb hisoblaydilar. Xuddi shu fikrni ilgari surgan Van Deyk tilning har jabhasida pragmatika to’la ekanligi, modallik esa, sintaktik kategoriya ekanligini alohida ta’kidlaydi²². O’zbek tilshunosligi materiallarida ham modallik sintaktik hodisa sifatida baholanadi. Lekin so’nggi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlarda bu qarash yoqlanmaydi, ya’ni modallik ko’p sathli hodisa bo’lib, uni faqat sintaktik doiraga xos deyish to’g’ri bo’lmaydi. Bugungi kunda modallik tilshunoslikning ko’plab sohalariga doir kategoriya sifatida talqin qilinmoqda. Shunday bo’lsa-da, uning asosi sintaksis bilan bevosita bog’lanadi.

Matn borki, unda, albatta, so’zlovchining shaxsiy munosabati mavjud bo’ladi. Ifoda etilayotgan modallikni ifodalovchi birliklar matn tarkibida ko’zga tashlansa, modallikning pragmatik kategoriya sifatidagi mohiyati matndan tashqari holatda ham seziladi. U istalgancha kengayishi, talqin qilinishi mumkin, pragmatik modallik aniq chegara bi’lmaydi, uni istagancha kengaytirish, davom ettirish mumkin, bu adresat va adresantning kognitsiyasiga bog’liq bo’lgan va faqat ularning orasidagi jarayon.

